O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail: namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana:17-09-2021 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 20078

Obyekt nomi «Pop tumani “Vodiy” massivida joylashgan “Mirishkor” kichik sanoat zonasiga keltiruvchi gaz tarmog‘i tortish»

Buyurtmachi – “HUDUDGAZ NAMANGAN” gaz ta’minoti filiali
Bosh loyihachi - “HUDUDGAZ NAMANGAN” gaz ta’minoti filiali
Litsenziya AL-000526 29.01.2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan
Moliyalashtirish manbai - Byudjet
Bosh pudratchi – Tanlov asosida
Qurilish turi Yangi qurilish
Murojaat raqami: № 18349

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2021-yil 21-yanvardagi 93-06-sonli qarori.

1.2. Pop tumani hokimining 19.06.2020-yildagi 557-sonli qarori.

1.3. Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021-yil 17-sentyabrdagi 01/04-1780-sonli ARTsiz loyihalash uchun rozilik xati.

1.4. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i.

1.5. “HUDUDGAZ NAMANGAN” gaz ta’minoti filialining 2021-yil 12-iyundagi 15/24-292-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. “Ishchi loyiha”ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Gazlashtirish. Tushuntirish xati, umumiy ma’lumotlar, gaz quvurlarini yo‘nalish rejasi, yer osti gaz quvurlarini yemirilishdan himoya qilish tadbirlari, jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvali.

- Qurilish qiymatining tavsiyaviy qismi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalanayotgan gaz tarmog‘i Pop tumani “Vodiy” massivi hududida joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me’yoriy

qor yuklamasi – 0,50 kPa, shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Yerni tuzilish relyefi – tekis.

3.2. Loyihaning asosiy yechimlari.

Loyihalanayotgan er osti gaz tarmog‘i Ø114mm po‘lat quvurlardan iborat bo‘lib, umumiy uzunligi – 200 metr. Loyihada yer osti po‘lat gaz quvurlarini yemirilishdan himoya qilish maqsadida quvur ustiga himoya qoplamasi o‘rash nazarda tutilgan.

3.3. Qurilish davomiyligi.

Qurilish davomiyligi – 0,5 oy.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. *Gaz ta’minoti* – “HUDUDGAZ NAMANGAN” gaz ta’minoti filialining 2021-yil 12-iyundagi 15/24-292-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud yuqori bosimli yer osti o‘rta bosimli gaz tarmog‘i qabul qilingan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Gaz quvurlarini yo‘nalish rejasi Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi, “Namangan geodeziya loyiha servis” MCHJ, “HUDUDGAZ NAMANGAN” gaz ta’minoti filiali bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ta’kidlansinki, ekspertiza qarovi jarayonida loyiha hujjatlariga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi (muayyan ekspertiza xulosasidagi kamchiliklarga ko‘ra):

6.1.1. Ishchi loyiha gaz tarmog‘ini tortish uchun asoslovchi hujjatlar bilan – jamlandi.

6.1.2. Tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.

6.1.3. Sanoat hududining tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyoji bo‘yicha hujjat – taqdim etildi.

6.1.4. Umumiy tushuntiruv yozuvida SHNQ 2.04.08-13ning 3.19 bandiga muvofiq gaz sarfini aniqlash hisobi – ishlab chiqildi.

6.1.5. Gaz tarmog‘i bo‘yicha gidravlik hisob – taqdim etildi.

6.2. Qurilish bahosini hisoblash.

Ekspertizaga taqdim qilingan – 65153,782 ming so‘m QQS bilan qurilish bahosi 1423,424 ming so‘mga kamaytirilib, ekspertiza natijasiga ko‘ra buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz QQS bilan qurilish bahosi – **63730,358 ming so‘m**ga tavsiya etildi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2016-yildagi 15-son qarorining 4 ilova, II-bob, 8-bandiga muvofiq taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va loyihachiga (qabul qilingan loyihaviy yechimlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Pop tumani “Vodiy” massivida joylashgan “Mirishkor” kichik sanoat zonasiga keltiruvchi gaz tarmog‘i tortish ishchi loyihasi ekspertiza natijalarini hisobga olgan xolda kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan narx shartnoma tuzish uchun asos bo‘la olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va SHNQ 4.01.16-09ga muvofiq tanlov savdolarini o‘tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki bahoni buyurtmachi

qabul qiladi.

Izoh: Yer qazish ishlarini boshlashdan avval, zaruratga ko‘ra muhandislik tarmoqlaridan foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar hamda aloqa, yo‘l korxonasi vakillari ishtirokini ta’minlash lozim.

Ekspert: Sh.Jalilov

Bosh mutaxassis: MAXKAMOV TOXIR MARIFJONOVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

Jalilov Shokirjon Zokirjonovich